

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI**

**RUZIYEV NURIDDIN MUXAMADALIYEVICH**

**AMALIY SAN'AT YO'NALISHIDAGI TALABALARDA USTOZ-  
SHOGIRD QADRIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI  
(badiiy kulolchilik misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon - 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Ruziyev Nuriddin Muxamadaliyevich**

Amaliy san’at yo‘nalishidagi talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirish metodikasi (badiiy kulolchilik misolida).....5

**Рузиев Нуриддин Мухамадалиевич**

Методика развития ценностей наставничества у студентов направления прикладное искусство (на примере специализации художественная керамика).....25

**Ruziev Nuriddin Mukhamadalievich**

Methodology for the development of mentor-apprentice values in students of applied arts (on the example of artistic pottery).....50

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....58

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI**

**RUZIYEV NURIDDIN MUXAMADALIYEVICH**

**AMALIY SAN'AT YO'NALISHIDAGI TALABALARDA USTOZ-  
SHOGIRD QADRIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI  
(badiiy kulolchilik misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon - 2025**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5143 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.espi.uz](http://www.espi.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ibraimov Xolboy Ibragimovich,**  
pedagogika fanlari doktori, akademik

**Rasmiy opponenlar:**

**Artiqova Muxayyo Botiraliyevna,**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li,**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengashning 2025-yil "28" *iyul* soat *14<sup>00</sup>* da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Andijon viloyati, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Tel.: +(99874) 223-88-30; e-mail: [agsu\\_info@adu.uz](mailto:agsu_info@adu.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Andijon viloyati, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Tel.: +(99874) 223-88-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "*14*" *07* kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" da \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).



*[Handwritten signature]*

**A.Sh.Sobirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**F.F.Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**D.A.Nurmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda amaliy san'at turlari orqali shaxsning iste'dodini, ma'naviyatini va estetik didini shakllantirish ustuvorlik qilmoqda. Ta'lim siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari orasida ta'limni rivojlantirish, malakali soha mutaxassislarini yetishtirib berish va iste'dodli kadrlarni tarbiyalash maqsadi mujassamlashgan. Shuningdek, barkamol shaxslarni tarbiyalash bo'yicha rivojlangan va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli shaxs maqsad bo'lib qolmoqda. Bu sohada rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanish taqozo etiladi. O'z navbatida, Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Rossiya, AQSh, Ispaniya, Misr, Hindiston amaliy san'at yordamida shaxsning ma'naviyatini yuksaltirish, mavjud san'atning avloddan avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlarini yanada rivojlantirishga katta urg'u bermoqda.

Dunyoda amaliy san'at turlarining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish, shu jumladan, xalq ijodiyoti asosida shakllangan an'analarining genezisi va mohiyatini yoritishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, ko'p asrli hayotbaxsh bu milliy qadriyatlar har bir xalqning milliy mentalitetini teran ifodalashi barobarida yangi badiiy talqinlar uchun ham muhim ijodiy manbadir. Hozirgi kunda ish beruvchilar tomonidan shakllangan kasbiy kompetensiyalarga ega talabalarga katta ehtiyoj mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, kelajakda amaliy san'at ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ustoz-shogirdlik salohiyati yuqori baholanadi.

Respublikamizda hunarmandchilik asrdan asrga rivojlanib, badiiy tasavvur boyligi, shakllarning chidamsizligi va mukammalligi bilan hayratga soladigan noma'lum ustalarning bebaho va noyob mahsulotlarini qoldirmoqda. Amaliy san'at tushunchasi madaniyat tarixida asta-sekin shakllandi. O'zbekiston merosi va madaniy qadriyatlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, hunarmandchilik an'analarini qayta tiklash milliy madaniyatni asrab-avaylash istagi tufayli tabiiy jarayondir. Ustoz-shogird va badiiy ta'lim an'analarini saqlagan holda o'qitishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga ijodiy ustaxonalar faoliyatini tatbiq etish taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni<sup>1</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi<sup>2</sup>, 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>3</sup>, 2021-yil 23-martdagi PQ-5033-son qarori "Kulolchilikni

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni / <https://lex.uz/uz/docs/-6490321>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori / <https://lex.uz/docs/-4084926>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-aprel sanasidagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / <https://lex.uz/docs/-4795687>

jadal rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>4</sup>gi, 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>5</sup>gi Qarorlari hamda mavzuga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" kabi ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ma'naviy-axloqiy, ta'limiy-pedagogik qadriyatlar mazmuni, ijtimoiy-qadriyatli yo'nalganlik tavsifi, ushbu yo'nalishda o'rta va oliy pedagogik ta'lim samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar R.G.Safarova, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, X.I.Ibraimov, A.A.Amonullayev, S.S.Bulatov, K.M.Gulyamov, Sh.A.Eshmetov, S.Sh.Aliyeva, X.M.Ochilova, X.A.Yuldashev, M.S.Abdullayev, S.S.G'ulomov, O.X.Aminbayeva, A.Turdaliyev, R.M.Sarsenbayevalarning<sup>6</sup> ishlarida o'z aksini topgan.

MDH olimlarining ustoz-shogirdlik fenomeniga qarashlari va yondashuvlari bo'yicha faoliyat olib borgan olimlardan R.M.Vartsava, A.A.Buklin. V.I.Plakidin

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-mart sanasidagi PQ-5033-son "Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / <https://lex.uz/docs/-5339469>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / <https://lex.uz/uz/docs/-5807559?ONDATE=12.06.2023%2000>

<sup>6</sup> Safarova R.G. O'quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarini tanlash va tizimlashtirish. Metodik qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 129 b.; Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. – 357 b.; Sharipov S.Sh. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2005. – 140 b.; Ibraimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika. Toshkent: Sahnof, 2023. – 56 b.; Amanullayev A.A. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning ilmiy metodik asoslari (Badiiy – grafika fakultetlari materiallari misolida): Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2001. – 45 b.; Bulatov S.S., Gulyamov K.M. Amaliy san'at. Darslik. – Toshkent: Iqtisod moliya, 2014. – 114 b.; Gulyamov K.M. Kasb-hunar kollejlarda xalq amaliy san'atini o'qitish metodikasi (naqqoshlik san'ati misolida): Ped. fan. dok. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 39 b.; Gulyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: TO'YTERA PRINT, 2022. – 94 b.; Эшметов Ш.А. Устоз-шогирд муносабатларининг ижтимоий-психологик феномени: Психол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Алиева С.Ш. 1970–90-йилларда Ўзбекистон халқ кулолчилиги (анъаналарнинг сақланиш ва ривожланиш муаммолари): Санъат. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 138 б.; Ochilova X.M. Bo'lajak pedagoglarni ustoz-shogird tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (kreativ pedagogika fani misolida): Ped. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Namangan, 2025. – 42 b.; Yuldashev X.A. Kichik mutaxassislar tayyorlashda "Ustoz-shogird odobi" an'alaridan foydalanishning ilmiy uslubiy asoslari (amaliy bezak san'ati misolida): Ped. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2012. – 185 b.; Abdullayev M.S. Xorazm amaliy bezak-san'atining rivojlanish tarixi (XVI asr – XX asr boshlari): San. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 21 b.; G'ulomov S.S., Bulatov S.S. Sharqona "Usta-shogird" odobi. Metodik qo'llanma. O'zROO'MTV "O'quv adabiyotlar, jurnal va byulletenlar nashrga tayyorlash" markazi. 2000. – 50 b.; Aminbaeva O.X. XIX – XX asr Xorazm xalq badiiy kandakorligi va kulolchiligi (anъanalар rivojlanishi va ijodiy jараёnnинg хусусиятлари): Санъат. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 71 б.; Турдалиев. А. Тасвирий санъат дарслари ва дардан ташқари машғулот жараёнида ўқувчиларни бадий касб-хунарга йўналтириш: Пед. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзПФТИ, 1997. – 18 б.; Sarsenbayeva R.M. Mehnat ta'limi negizida o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishning ilmiy-metodik asoslari (xalq hunarmandchiligi misolida): Ped. fan. nomz. ... diss. – Toshkent: OUMKXTRI, 2004. – 127 b.

V.G.Demidova, L.N.Milnikova, E.G.Vakulenko, M.M.Omarov, T.V.Tolbuzina, S.I.Valkeyvich, T.S.Burkitbayev, I.E.Agapovalar<sup>7</sup> tomonidan bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy texnologiyalarni qo‘llash, kasbiy-pedagogik, hunarmandchilikning barcha turlarida asrlar mobaynida shakllanib kelgan kasbiy tarbiyani shakllantirishning ustoz-shogirdlik masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy olimlardan L.Jiang, A.Canay, O’Neill, Cara-Jane<sup>8</sup> kabilar tomonidan tahlil etilgan, ular ta’limda kasbiy va ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqot olib borganlar.

Ammo yuqoridagi ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish orqali aniqlanadiki, amaliy san‘at yo‘nalishidagi talabalarda ustoz-shogirdlik an‘analarini shakllantirish metodikasi maxsus ilmiy tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2017–2020-yillarga mo‘ljallangan FZ-2016-0909111822-son “Darslik va o‘quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** amaliy san‘at yo‘nalishidagi talabalarda ustoz-shogirdlik qadriyatlarini va an‘analarini shakllantirishni metodik jihatdan asoslash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda ilmiy-metodik ta‘minotni takomillashtirish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>7</sup> MDH olimlari: Варцава Р.М. Содержание и методы преподавания (художественной) керамики на художественно-графических факультетах педагогических институтов: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 1989. – 107 с.; Булкин А.А. Развитие художественных потребностей студентов художественно-графических факультетов педагогических вузов на занятиях керамикой: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2002. – 123 с.; Плакидин В.И. Развитие народно-прикладного творчества учащихся основной школы как фактор возрождения художественных промыслов: На примере лозоплетения: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2006. – 87 с.; Демидова В.Г. Методические основы преподавания керамики в детских художественных школах: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2006. – 127 с.; Мильникова Л.Н. Керамика переходного времени от бронзового к железному веку лесостепной зоны Западной Сибири: диалог культур: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2015. – 113 с.; Вакуленко Е.Г. Региональная система профессионального образования в сфере народного декоративно-прикладного искусства: На примере Краснодарского края: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2004. – 108 с.; Омаров М.М. Патриотическое воспитание школьников в процессе приобщения к декоративно-прикладному искусству: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2008. – 97 с.; Толбузина Т.В. Непрерывное профессиональное образование в сфере народного декоративно-прикладного искусства: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2007. – 72 с.; Валькевич С.И. Педагогические условия развития творческой деятельности учащихся: на примере изучения предмета технология: Дисс. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2007. – 83 с.; Буркитбаев Т.С. Народное декоративно-прикладное искусство как средство эстетического воспитания детей младшего школьного возраста: на примере использования орнаменталистики: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2008. – 95 с.; Агапова И.Э. Педагогические условия формирования профессионального интереса у учащихся колледжа традиционного прикладного искусства: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2009. – 128 с.

<sup>8</sup> Xorijlik olimlar: Jiang, L. Valuing Craftsmanship: In particular the crafting of Chinese porcelain and Dutch Delft Blue. [Doctoral Thesis, Erasmus University Rotterdam]. – Erasmus Universiteit Rotterdam (EUR), – 2018. – 35 p.; Canay A. Anadolu’da üretilen kilim motifleri ve seramik sanatında yorumlanması. Yüksek Lisans Tezi. Danışman: Yard.Doç.Dr. Kadir Sevim Haziran. – Afyonkarahisar, 2011. – 42 s.; O’Neill. Cara-Jane. A processual investigation of artistic interventions with everyday ceramic objects. Doctoral thesis (PhD), – Manchester Metropolitan University, 2018. – 161 p.

amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlarini ochib berish;

amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish;

talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti:** bo'lajak amaliy san'at mutaxassislarini ustoz-shogirdlik qadriyatlari hamda milliy didaktik qadriyatlardan foydalanishga tayyorlashga yo'naltirilgan oliy pedagogik ta'lim pedagogik jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti** amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogirdlik qadriyatlarini shakllantirishning mazmuni, shakli, strategiyalari, mezonlari, metodlari va pedagogik modeli.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqotda tahlil, o'rganish, umumlashtirish, suhbat, anketa so'rovnoma, pedagogik eksperiment, matematik statistika usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlarini pedagog va talaba o'rtasida maqsadli pedagogik hamkorlikni maqbullashtiruvchi o'zaro ishonch va qiziqish, erkinlik tamoyillarini ilmiy-ijodiy faoliyat mazmuniga shaxsiy moslashuvchanlikda singdirish asosida ochib berilgan;

amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirish modeli shogird, ustoz manfaatlarini barqaror ta'minlovchi akademik-ijodiy topshiriqlarni prognozlash, amaliy ish va tahlil bosqichlarida konstruktiv yo'nalganlikda qo'llash asosida takomillashtirilgan;

ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti talabalarni gorizontal va vertikal ijtimoiy harakatga intensiv tayyorlovchi individual dasturni kasbiy muammolar korreksiyasi muhitida psixo-emotsionallik muvozanatida qo'llash asosida takomillashtirilgan;

talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlanganligini baholash mezonlari kasbiy va shaxsiy potensialni integrativ faollashtiradigan amaliy keyslarni kompleks rivojlanish trayektoriyasini tanlash jarayonida ongli pozitsiya ustuvorligida qo'llash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogirdlik an'analarining ilmiy tadqiqotidan olingan xulosalar o'zbek amaliy san'atiga va ustoz-shogirdlikka doir muhim ma'lumotlar beradi;

amaliy san'at turlarining mumtoz an'analarini tizimlashtirishda ilmiy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi;

oliy ta'lim muassasalarining amaliy san'at yo'nalishi talabalari va o'qituvchilari o'rtasida ustoz-shogirdlikni joriy qilishga ko'maklashadi;

amaliy san'atga doir darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi;

amaliy san'at namunalari ishlab chiqish faoliyatida qo'llash uchun zarur bo'lgan uslubiy ishlanmalarni yaratish imkonini beradi;

amaliy san'at ta'lim yo'nalishi talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq etish ko'nikmalarini oshiradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** bo'lajak amaliy san'at mutaxassislarini milliy qadriyatlar, milliy hunarmandchilik an'alaridan foydalanishga tayyorlashning mazmuni va mexanizmlarining ishlab chiqilganligi, pedagogik prinsiplar va metodlarining qo'llanilganligi, axborotlarning to'g'riligi va to'liqligi, ma'lumotlarning ilmiy-pedagogik manbalarga tayangan holda tahlil etilganligi, tajriba-sinov natijalarining miqdor va sifat jihatdan obyektivligi ta'minlanganligi, olingan natijalarning matematik-statistik ishlov berish orqali samaradorlikning aniqlanganligi, tadqiqot natijalarining ta'lim amaliyotiga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy pedagogik jarayonida bo'lajak amaliy san'at mutaxassislarini milliy qadriyatlar hamda milliy hunarmandchilik an'alaridan foydalanishga tayyorlashning mazmunini aniqlanganligi, bo'lajak Amaliy san'at badiiy kulolchilik mutaxassislarini an'anaviy kulolchilik qadriyatlaridan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarining takomillashtirilganligi; tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak amaliy san'at mutaxassislarini o'zbek amaliy san'atida mavjud ma'lumotlarni yangi axborot bilan kengaytiradi va to'ldiradi, ustoz-shogirdlik qadriyatlarining rivojiga ham xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, rivojlantirish bosqichlari, komponentlari, parametrlari, tarixiy-madaniy merosning ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari hamda ta'lim tizimiga tatbiq etishga doir takliflardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalarining amaliy san'at ta'lim yo'nalishi talabalarida ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlari pedagog va talaba o'rtasida maqsadli pedagogik hamkorlikni maqbullashtiruvchi o'zaro ishonch va qiziqish, erkinlik tamoyillarini ilmiy-ijodiy faoliyat mazmuniga shaxsiy moslashuvchanlikda singdirish xususidagi xulosalardan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan IL-422105582 raqamli "O'zbekiston badiiy tizimida "Onlayn muzey" elektron galereyasini yaratish" nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 12-oktabrdagi 02-07-4577/04-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogirdlik an'alarini rivojlantirishga sharoit yaratilgan;

amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirish modeli shogird, ustoz manfaatlarini barqaror ta'minlovchi akademik-ijodiy topshiriqlarni prognozlashga oid xulosalardan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan IL-422105582 raqamli "O'zbekiston badiiy tizimida "Onlayn muzey" elektron galereyasini yaratish" nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va maktab ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 12-oktabrdagi 02-07-4577/04-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy san'at turlarining mumtoz an'analarini tizimlashtirishga sharoit yaratilgan;

talabalarda ustoz-shogird qadriyatlari rivojlanganligini baholash mezonlari kasbiy va shaxsiy potensialni integrativ faollashtiradigan amaliy keyslarni kompleks rivojlanish trayektoriyasini tanlashga oid xulosalardan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan IL-422105582 raqamli "O'zbekiston badiiy tizimida "Onlayn muzey" elektron galereyasini yaratish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va maktab ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 12-oktabrdagi 02-07-4577/04-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey, kollej va umumta'lim maktablarida ustoz-shogirdlikni joriy qilishga sharoit yaratilgan;

ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti talabalarni gorizontal va vertikal ijtimoiy harakatga intensiv tayyorlovchi individual dasturni kasbiy muammolar korreksiyasiga oid taklif va tavsiyalardan "San'at" ta'lim sohasi 60210800-Amaliy san'at (badiiy kulolchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Badiiy kulolchilikda ashyolarda ishlash" fani bo'yicha o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-buyrug'i). Natijada talabalarning ijodini rivojlantirish, ularning bilimlarini mustaqil oshirishiga, qobiliyati va kasbga tayyorlanish darajasining oshishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola, shulardan 10 tasi respublika jurnallarda, 2 ta xalqaro jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 126 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, respublika fan va

texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobini **“Amaliy sanʼat yoʻnalishdagi talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, “Ustoz-shogird” anʼanalari va unga tarixiy va zamonaviy qarashlar, ustoz-shogirdlik amaliy sanʼat sohasida ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlashda zaruriy boʻlgʻin sifatida, oliy taʼlimda talabalarga ustoz-shogirdlik qilishning maqsadli shakllari yoritilgan.

Ayni paytda mamlakatimiz taʼlim va ijtimoiy-madaniy sohada tub oʻzgarishlarga intilmoqda, bunga ehtiyoj fikrlash, maqsadlarni belgilash va harakatlar shakllarining oʻzgarishi, shuningdek, iqtisodiy sektorning istiqbollari bilan bogʻliq.

Ushbu sohalarni uygʻun va tizimli ravishda oʻzgartirishning ahamiyati taʼlim tizimida oʻz aksini topgan boʻlib, unda barcha taʼlim muassasalari oldiga ikkita asosiy maqsad qoʻyilgan: taʼlimning global raqobatbardoshligini taʼminlash va xalqlarning maʼnaviy-axloqiy qadriyatlari va madaniy anʼanalariga asoslangan barkamol rivojlangan va ijtimoiy masʼuliyatli shaxsni tarbiyalash.

Mazkur maqsadlarga koʻnikmalar, isteʼdodlar va kompetensiyalarni qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish tizimini yaratmasdan erishish mumkin emas. Ushbu tizim, shuningdek, barcha talabalarni oʻz taqdirini oʻzi belgilash va kasbiy yoʻnaltirish muammosini hal qilishga hissa qoʻshishi kerak.

Yuqorida aytib oʻtilgan maqsad va vazifalarga javob beradigan eng samarali strategiya “Ustoz-shogird” metodologiyasidan foydalanish boʻlib, uning doirasida turli darajadagi va taʼlim shaklidagi talabalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash mumkin.

Oʻqituvchining oʻz ustida ishlashi, pedagogik mahoratini oshirib borishida “Ustoz-shogird” usuli kutilgan natija berishi shubhasiz. Zero, ustoz-shogirdlik azaldan xalqimizning tabiatiga xos xususiyat boʻlib, uni tizimga aylantirish taʼlim samaradorligini oshirishda gʻoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham “Ustoz-shogird” anʼanasini taʼlim-tarbiya tizimida mustahkam qaror toptirish juda muhimdir. “Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasi”da “Ustoz – shogird” anʼanalarini tiklash taʼlim tizimida maʼnaviy tarbiyani amalga oshirishning muhim vazifasi sifatida belgilanganligi ayni muddao boʻldi. “Ustoz-shogird” anʼanasi faqat taʼlimni rivojlantirishga qaratilgan tor doiradagi usul emas, u eng avval, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni farovon, saodatli qilishdan iborat ezgu gʻoyadir.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan ustoz shogird munosabatlariga juda katta eʼtibor bilan qaralgan. Bu munosabatlar nafaqat insonni, balki millatning kelajagida muhim oʻrin egallashi toʻgʻrisida oʻz asarlarida bu ezgu gʻoyaga doir qimmatli hikmatlarni bayon etganlar. Mutafakkir ajdodlarimiz ijodida koʻplab ustozlik timsollari yaratildi.

Darhaqiqat, ta'lim tizimi taraqqiyoti davomida Sharq va G'arb davlatlarida intellektual salohiyatning o'sishi o'ziga xos ravishda rivojlandi. Bu jarayonlar davomida milliy hunarmandchilikda ham o'ziga xos ustoz-shogirdlik qadriyatlari rivojlanib bordi. Bular ichidan oddiy hunarmandchilikdan san'at darajasiga chiqqan amaliy san'at turlari mavjud. Bu rivojlanishlarning geografiyasi ham keng, lekin ularning umumiyliigi va o'ziga xosligi ham mavjud.

VIII-XI hamda XV asrlar insoniyat tarixida Sharq Uyg'onish davri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda mamlakatimiz hududlarida yashab ijod etgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari Bag'dod, Marv va Xorazmdagi ilmiy-ma'rifiy markazlarda olib borildi. O'rta asrlarda tashkil etilgan ilmiy maktablarda dunyoviy va diniy fanlar rivojiga vatandoshlarimiz ulkan hissa qo'shdilar. Natijada "ustoz-shogird" an'analarning davomiyligi asosida mazkur ilmiy maktablarda buxoriylar, farg'oniylar, xorazmiylar, termiziylar, samarqandiylar avlodi ulkan ilmiy yangiliklari bilan insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Ta'limni individuallashtirish o'quv jarayonini shunday tashkil etishni o'z ichiga oladi, bunda ustoz har bir shogirdining yuqori darajadagi o'quv (aqliy, kognitiv, mehnat) faoliyatiga erishadi, guruhning barcha shogirdlari o'z imkoniyatlarini to'liq safarbar etadilar. Biroq har bir talabaning o'quv faoliyatining yuqori darajadagi faolligi zarurligini ta'kidlab, ustoz har bir shogirdini yaxshi bilish, doimiy ravishda "zaif" darajasini "o'rtacha", "o'rtacha" darajasini "kuchli" darajaga ko'tarish, "kuchli"ning qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirish kerak.


Amaliy san'at mashg'ulotlarini individuallashtirishga o'quv va amaliy san'at ishlarining sifatini oshirish bo'yicha ommaviy ishlarning turli shakllari ham katta yordam beradi. Ular orasida eng mashhurlari –"Kasbi bo'yicha eng yaxshi" unvoni uchun tanlovlar, "Eng yaxshi mahsulot" uchun tanlovlar, shogirdlarning eng yaxshi asarlari ko'rgazmalari, guruhlarda sifat kunlarini o'tkazish; "Eng yaxshi guruh" unvoni uchun tanlov kabilar.

Biz "ustozlik" tushunchasini quyidagicha ta'riflaymiz: Ustozlik – shaxs, uning intellekti, qobiliyati, jismoniy kuchi, ma'naviyatini maqsadli shakllantirish, uni hayotga, faol mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayoni. "Ustoz-shogird" jarayoni subyekt-subyekt xarakteriga ega bo'ladi va pedagogik hamkorlikning bir turi hisoblanadi.

"Ustoz-shogird" an'analari faqatgina bir tomonlama ko'nikmalarni o'tkazish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Kasbiy majburiyatlar borasida ustoz va shogird o'rtasidagi ochiqlik ko'nikish jarayonining taktik maqsadlarini to'g'ri belgilash, ruhiy yengillikni taklif etish va boshqalarga imkon yaratadi.

"Ustoz-shogird" an'anasi hamkorlikning eng kamida uchta subyeksi: shogird, ustoz va ish bergan tashkilot manfaatlarini ifoda etadi. Yosh mutaxassis bilimlar oladi, malaka va ko'nikmalarini, o'z kasbiy darajasi, qobiliyatini oshiradi, kasbiy (malakaviy) rivojlanadi, ustoz butun adaptatsion muhit bilan konstruktiv munosabatlar qurishni o'rganadi, o'zi ishlayotgan soha, tizim, tashkilot haqida axborotga ega bo'ladi. Bu orqali tashkilot kadrlar tayyorlashning madaniy va kasbiy darajasini yaxshilaydi, hamkasblar o'rtasidagi munosabatlar ochiqlashadi.

Bitiruvchilarning deyarli uchdan ikki qismi o‘z yangi ish joylarida ko‘nikma hosil qila olmayotganliklarini va o‘zlarida kasbiy o‘sish hamda amal pog‘onalaridan ko‘tarilish uchun potensial topa olmayotganliklarini ta’kidlashadi.



### 1-rasm. “Ustoz-shogird” an’anasining bosqichlari

Abu Homid G‘azzoliy shogirdning vazifalarini sanab o‘tadi. Bular: ilm yo‘lini tanlagan shogird jirkanch xulqlardan, yomon sifatlardan xoli bo‘lishi kerak; dunyoviy mashg‘ulotlarni ozaytirishi, vatanidan yiroqda bo‘lishi; ilmiga kibrlanmasligi, ustoziga qarshi chiqmasligi shart; ilm jarayonida odamlarning ixtiloflariga quloq solmasligi, o‘ziga kerakli barcha ilmlarni o‘rganib, maqsadiga erishishi lozim; turli ilmlarga kirib ketmasdan tartibga rioya qilishi va muhimrog‘idan boshlashi kerak; avvalgi fanni mukammal o‘rganmasdan turib boshqasiga kirishmasligi shart; sharaflilarga olib boradigan sabablarni ham bilishi lozim bo‘ladi.

Abu Homid G‘azzoliy ustozning vazifalarini quyidagicha izohlaydi: «Ustoz – ta’lim oluvchilarga nisbatan shafqatli bo‘lishi, o‘z bolalari kabi muomala qilishi; ilm o‘rgatish uchun haq talab etmasligi; shogirdiga qilinishi lozim bo‘lgan nasihatlardan hech birini qoldirmasligi; shogirdning yomon axloqini oshkora emas, balki o‘ziga ko‘rsatish yo‘li bilan, yomon so‘zlar bilan emas, shafqat yo‘li bilan qaytarishi lozim; ilmni shogirdga uning fahm-farosati ko‘tarishiga qarab berish lozim; zehni past shogirdga o‘ziga munosib ochiq ilmlarni o‘rgatish lozim; u ilmiga amal qiluvchi bo‘lmog‘i lozimki, fe’li so‘zini yolg‘onga chiqarmasin”.

Har bir millatning boy tarixi, shon-shavkati, betakror ma’naviy merosi, umuman olganda, qahramonlarning dunyoga kelishi ustozlarning mehnati samarasi sanaladi. Shu sababdan, kasbni egallashda, albatta, ustozlar ko‘magida ular tajribalari, tavsiyalarini o‘zlashtirish shogirdlar burchidir. Mamlakatimizda ustoz-shogirdlik bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ta’lim va biznes tashkilotlari ustoz-shogirdlikni tizimning strategik muhim elementi deb bilishadi.

Ustoz-shogirdlik – bu ishonch va sheriklikka asoslangan norasmiy o‘zaro boyituvchi muloqot orqali tajriba, bilim, ko‘nikma, malaka, meta-kompetensiya va qadriyatlarni shakllantirish uchun universal texnologiya. Ustoz-shogirdlik shakli – bu asosiy faoliyat va ishtirokchilarning pozitsiyasi bilan belgilanadigan muayyan rolli vaziyatda bo‘lgan ustoz juftlik yoki yakka guruh ishini tashkil etish orqali maqsadli modelni amalga oshirish usuli. Ustoz-shogirdlikni amalga oshirish shartlariga qarab quyidagi shakllarga bo‘linadi: “shogird – shogird”, “o‘qituvchi – o‘qituvchi”, “talaba – shogird”, “ish beruvchi – shogird”, “ish beruvchi – talaba”. Ushbu shakllarning har biri o‘qitish kasbiy faoliyat bosqichini va tizimning uchta

ishtirokchisining dastlabki asosiy talablarini hisobga olgan holda qisman o'zgartirilgan yagona ustoz-shogirdlik metodologiyasidan foydalangan holda ma'lum bir qator vazifalar va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi.

Ustoz-shogirdlikning beshta shaklining har biri o'zaro hamkorlik ishtirokchilari, tomonlarning har birining maqsad va vazifalari, shuningdek, dasturning samaradorligini baholashning o'lchovli natijalari va shakllari to'g'risida to'liq tushuncha yaratishga imkon beradi. Yuqorida keltirilgan ustoz-shogirdlik shakllari zarur ko'nikmalar, amaliy ko'nikmalar va meta-kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi ta'lim strategiyasini shakllantirish uchun samarali muhitga aylanishi mumkin. Ya'ni: kadrlar siyosatini sifatli amalga oshirish uchun; kasbiy va shaxsiy o'z taqdirini o'zi belgilash tizimiga tashkiliy o'tish; mamlakatimiz yoshlarining inson kapitali va salohiyatini rivojlantirish.

Samarali ustoz kasbiy mahorat musobaqalarida ishtirok etib, tinglovchilarga o'rnak ko'rsatishi kerak. Talabalar bilan ishlashning asosiy tamoyillari quyidagilar bo'lib, ularni uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. Tanishish, o'zaro tushunish va ishonch munosabatlarini o'rnatish, mas'uliyat doirasini aniqlash, shogirdning ko'nikma va qobiliyatlaridagi kamchiliklarni aniqlash.

2. Moslashuv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, shogirdning kasbiy mahoratini sozlash.

3. Shogirdning kasbiy moslashish darajasini va uning ishni bajarishga tayyorlik darajasini aniqlash.

Talabalar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv afzal hisoblanadi. Ustoz badiiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish zarurligiga e'tibor qaratadi. Ustoz shogirdlarning muvaffaqiyatini kuchaytirishga, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish istagini qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Amaliy san'at yo'nalishidagi talabalarda ustoz-shogird qadriyatlarini rivojlantirish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida O'zbekistonda amaliy san'atning rivojlanish jarayonlari, Amaliy san'at yo'nalishi talabalarini tayyorlashda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari va mashg'ulot o'tkazish metodlari, Ustoz-shogirdlik dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishda “Ustoz-shogird” murabbiylik modeli bayon qilingan.

O'zbekistonning xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi xalqimiz madaniyatining ajralmas qismidir. Yurt hunarmandchiligi dunyoni ongli idrok etishning ko'p asrli tajribasini aks ettiradi, bu kelajakka tayanch bo'lib, mamlakatimizning turli millatlarining xalq ijodiyoti an'analarini saqlaydi. An'anaviy xalq hunarmandchiligini aktuallashtirish maqsadlari: an'anaviy xalq madaniyatini saqlash, amaliy ijodning ahamiyatini oshirish va qo'l mehnatini ommalashtirishdir.

Shogirdlar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv afzal hisoblanadi. Ustoz badiiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish zarurligiga e'tibor qaratadi. Ustoz shogirdlarning muvaffaqiyatini kuchaytirishga, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish istagini qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi. Shogirdlar bilan ishlashda ba'zi xususiyatlarni ta'kidlash mumkin. Shogirdlar bilan ishlash

haqiqiy ish sharoitida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bu jarayon ustoz va shogird o'rtasidagi yaqin shaxslararo aloqani, yosh o'qituvchining kasbiy pozitsiyalarining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Amaliy san'at sohasi – ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolarini badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari yaratilgan davrining maishiy qatlamiga mos mahalliy va milliy xususiyatlarni, ijtimoiy guruhlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan uning moddiy madaniyatini ifoda etadi. Asrlar mobaynida xalq ijodiyotining sohasi sifatida amaliy san'ati yuzaga kelgan. Uning rivojida xalq yashagan joyning geografik sharoiti, xalqining mashg'uloti, etnik va milliy jihatlari, turmush tarzi, madaniy darajasi, qo'shni xalqlar bilan aloqalari va boshqalar muhim rol o'ynagan.

O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur nafis san'atlar maktablarining noyob an'analarini avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, milliy, tasviriy, amaliy, miniatyura san'atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, nafis san'atlar sohasidagi ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini barpo etish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda badiiy bezatish uslubi, plastik va texnologik xususiyatlari bo'yicha uchta asosiy kulolchilik maktablarini aytib o'tish o'rnlidir:

Farg'ona badiiy kulolchilik maktabi (Rishton, Andijon, G'urumsaroy, Namangan). Buxoro – Samarqand badiiy kulolchilik maktabi (Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Shahrisabz, Denov, Kitob, Uba). Xorazm kulolchilik maktabi (Xiva, Urganch, Kattabog', Xonqa, va Qo'shko'pir nohiya va qishloqlari) kulolchilikni "Ustoz-shogird" qadriyatlarining ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha kasb sirlarini o'rgatib kelmoqdalar.

Bugungi kunda mazkur maktablar faoliyatini uzoq yillardan o'z an'anasiga va ishlab chiqarish texnologiyasiga sodiq qolgan holda avlodlardan avlodlarga o'tib borishida xizmat qilib kelayotgan ustazoda kulollar ham bor. Ular Rishton kulolchilik maktabining zabardast va kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda o'z imzosiga ega bo'lgan ustazoda kulollar Alisher Nazirov, Baxtiyor Nazirov va Sharofiddin Yusupovlardir. Nazirov Alisher Nosirovich milliy va an'anaviy kulolchiligimizni rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelayotgan mamlakatimizdagi ishbilarmon, tashabbuskor va taniqli ustalardan biridir. Usta kulol tomonidan o'n mingdan ortiq mualliflik asarlari yaratilgan. Shu bilan birgalikda kulolchilik texnologiyasida unutilib ketilayotgan "Ishqorli sir" tayyorlash asoslarini takomillashtirmoqda. Shu yo'nalishda Rishtonda yagona "Ustoz-shogird" maktabida yoshlarga an'anaviy-moviy kulolchilik sirlarini o'rgatmoqda.

Ustoz-shogirdlik modeli talaba bilan tajribali o'qituvchining resurslar va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'zaro muloqotini o'z ichiga oladi, bunda ustoz "o'qituvchi uchun yangi ijobiy amaliyotlar" tashuvchisi sifatida ishlaydi,

shogirdning shaxsiy salohiyatini faollashtiradi, uning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va o'z-o'zini anglash, talabning qiyin hayotiy vaziyatlarni hal qilish, individual ta'limni qurishda yordam beradi.

Ushbu modelda "ustoz" atamasini keng ma'noda tushunish kerak: boy shaxsiy va kasbiy tajribaga ega bo'lgan kattalar, ta'lim muassasasining xodimi, u uzoq vaqt o'qituvchilik tajribasiga ega bo'lishi shart emas, lekin o'z faoliyatini amalga oshirishi, shuningdek, ustozni qo'llab-quvvatlash va uning mahoratini o'zaro rivojlantirishi mumkin. O'zaro munosabatlarni tashkil etish doirasida u o'z ta'lim muassasasining boshqa xodimlarini jalb qilishi yoki boshqa sherik tashkilotlar bilan ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi mumkin. Bunday ustoz-shogirdlik modelining maqsadi – talabalarning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ongli yondashuvini muvaffaqiyatli shakllantirish, o'z iste'dodi va mahoratini rivojlantirishga qiziqqan talabalar sonining ko'payishi, individual ta'lim yo'nalishini qurishda qo'llab-quvvatlash va talaba tushgan qiyin hayotiy vaziyatlarni hal qilishdir.

O'qituvchi-ustozning talabaga nisbatan faoliyatining quyidagi asosiy vazifalari mavjud: shaxsiy salohiyatni ochib berish va baholashga yordam berish; kelajakdagi kasbni tanlash, o'z taqdirini o'zi belgilash, shaxsiy rivojlanish, qadriyat va hayotiy yo'nalishlarni shakllantirish masalalarida xabardorlikni oshirish; yetakchilik, tashkiliy, muloqot qobiliyatlari va meta-kompetensiyalar; individual ta'lim yo'nalishlarini qurishda yordam berish, qiyin hayotiy vaziyatlarni hal qilishda psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish.

Tajribali ustoz kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatlarga ega, turli kasbiy ijodiy tanlovlar g'olibi, darsliklar va materiallar muallifi, vebinarlar va seminarlar ishtirokchisi yoki boshlovchisi, faol ijtimoiy ishlarga moyil, pedagogik va yoki ta'lim muassasasi jamoalarining sodiq ishtirokchisi, yetakchilik, tashkiliy va muloqot qobiliyatlari, yaxshi rivojlangan empatiya, shaxsiy ijobiy sevimli mashg'ulotlari tizimiga ega. Turli vazifalarni amalga oshirish uchun ikki turdagi ustozlarni ajratish mumkin.

Ustoz-maslahatchi – shogirda yangi ijobiy amaliyotlarni shakllantirish rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi, o'quv jarayonini tashkil etish va o'ziga xos psixologik, pedagogik va kommunikativ muammolarni hal qilishda yordam beradi. Ustoz-fan o'qituvchisi – bu kelajakdagi kompetensiyalar tashuvchisi bo'lgan, ta'lim, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi anglash va shogirdning kasbiy yo'nalishi masalalarida, shu jumladan barqaror sheriklik doirasida har tomonlama pedagogik yordam ko'rsatishga qodir bo'lgan tajribali o'qituvchi.

"Ustoz-shogird" shaklidagi rol modellarining o'zgarishi ustozning o'z ehtiyojlariga, ta'lim muassasasining xususiyatlariga va ustozning resurslariga qarab farq qilishi mumkin. Ta'lim muassasasining hozirgi tajribasini hisobga olgan holda, asosiy variantlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

"faol ustoz – passiv shogird" o'zaro ta'siri – kommunikativ, ijodiy, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish o'z-o'zini tarbiyalash g'oyalarini rag'batlantirish, individual ta'lim yo'nalishini ongli

ravishda tanlash, shu jumladan, kelajakdagi kasbni tanlash doirasida motivatsion va qiymatni qo'llab-quvvatlash; "faol ustoz – faol shogird" o'zaro ta'siri – bu o'quv, ijodiy yoki ijtimoiy loyihani yaratish bo'yicha birgalikdagi ish bo'lib, uning davomida shogird ustozni sezilarli qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan yangi qarashlar va ijodiy g'oyalar bilan o'rtoqlashadi, uning rivojlanishiga hissa qo'shadi, ustozning o'zi tashkilotchi sifatida ishlaydi;

"g'amxo'r ustoz – qiyin hayotiy vaziyatda bo'lgan shogird" o'zaro ta'siri – bu bolaning yo'qolgan aloqalari va funksiyalarini tiklash, hayotni qo'llab-quvvatlash muhitini to'ldirish, psixologik va axloqiy travmani yengish bilan bog'liq muayyan hayotiy vaziyatda unga g'amxo'rlik qilishni kuchaytirish; "g'amxo'r ustoz – shaxsiy muhim muammoga ega bo'lgan talaba" o'zaro ta'siri – ijtimoiy, psixologik, shaxsiy qiyinchiliklarni yengish uchun aniq shaxsiy muhim muammolarni hal qilish doirasida talabani psixo-emotsional qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik shaxsiy yordam. Bu talaba bilan birgalikda uning imkoniyatlarini va uning insoniy qadr-qimmatini saqlab qolishga va o'rganish, muloqot qilish, turmush tarzida mustaqil ravishda kerakli natijalarga erishishga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni (muammolarni) yengish yo'llarini aniqlash jarayonidir.


Ta'lim muassasasida "Ustoz-shogird"lik modelini ishlab chiqishga yondashuvlar loyihalarni boshqarishning umumiy mantig'iga mos keladi, bu menejmentda belgilangan natijalar va maqsadlarga erishish uchun vaqt va resurs cheklovlari ostida keng ko'lamli vazifalarni boshqarish usuli sifatida ko'rib chiqiladi. Ta'lim muassasasida ustoz-shogirdlikni tashkil etish hamda rivojlantirish xizmat qiluvchi "Online muzey" platformasida batafsil bayon etilgan. Ustoz-shogird qadriyatlarini shakllantirishda mazkur platforma ham samarali vosita sifatida xizmat qildi. "Ustoz-shogird"lik modeli bo'yicha ustoz-shogirdlik dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish" uslubiy tavsiyalarida keltirilgan.

Xususan, maqsadli ustoz-shogirdlik modelini loyihalash – bu ustoz-shogirdlik dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, resurslar va mexanizmlar tizimi ekanligi ta'kidlandi. Ushbu tavsiyalarda ta'lim muassasasida ustoz-shogirdlik modelini loyihalash va amalga oshirish jarayonida harakatlar algoritmi keltirilgan. Ushbu faoliyat algoritmi ta'lim muassasasida ustoz-shogirdlikning qanday shakllari, modellari amalga oshirilishidan qat'i nazar universaldir. Ustoz-shogirdlik jarayonida turli xil hal qilingan muammolar bilan algoritmlangan faoliyat jarayoni bir xil bo'lib qoladi.

Bu yerda "Ustoz-shogird" modeli asosida ustoz-shogirdlik dasturlarini loyihalashda ta'lim muassasasining faoliyati algoritmi keltirilgan. Algoritm bosqichlarining tavsifi qisqacha berilgan, chunki ko'p hollarda ular ishlab chiqilgan ustoz-shogirdlik modelidan qat'i nazar universaldir. Ba'zi hollarda "Ustoz-shogird" modeli kontekstida loyiha faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan bosqichning batafsil tavsifi beriladi.


"Ustoz-shogird" modeli asosida ustoz-shogirdlik dasturlarini loyihalashda ta'lim muassasasining faoliyati algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat: haqiqiy vaziyatni tahlil qilish va baholash asosida muammoni aniqlash bosqichi; ustoz-

shogirdlik modelining variantini aniqlash bosqichi; ta'lim muassasasida qaysi ustoz-shogirdlik modeli ishlab chiqilishi va joriy etilishi aniqlanadi (“ustoz – ustoz”, “ustoz – shogird”, “shogird – shogird” va boshqalar.); maqsadni belgilash bosqichi; ichki va tashqi resurslarni tahlil qilish va tanlash bosqichi; model boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini rivojlantirish bosqichi; modelni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni aniqlash bosqichi; modelni amalga oshirish vaqtini aniqlash bosqichi; modelni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini rejalashtirish bosqichi.





**2-rasm. Ta'lim muassasalarida “Ustoz-shogird” modelini boshqarishning tashkiliy tuzilishi**

Hunarmandchilikdagi qator an'analarni ta'limda qo'llash orqali Ustoz-shogird qadriyatlarini umrini uzaytirishimiz va bu orqali bugungi ishsizlik, moddiy-madaniy muammolarga yechim topish mumkin. Bu borada OTMning Amaliy san'at ta'lim yo'nalishi talabalarida “Poykor”lardan foydalanish maqsadli. “Poykor” darajasi barcha uchun berilmaydi. Buning uchun Ustoz-shogirdlik mezonlari asosida ta'lim-tarbiya olgan talabalar qamrab olinadi va bular o'z navbatida qolgan talabalarga o'rnak, yordamchi, maslahatchi vazifasini bajaradi.



**3-rasm. Ustoz-shogird qadriyatlari bo‘yicha “Poykor”lar uchun mezonlar**





#### 4-rasm. Ustoz-shogirdlik dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishda “Ustoz-shogird” murabbiylik modeli

